

QUR'ONI KARIMDA QO'L HARAKATLARI IFODASI

Muydinov Paxlavon Kaxramonovich,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Qo'l noverbal harakatlarni amalga oshiradigan eng muhim tana a'zosi hisoblanadi. Bevosita qo'l bilan yoki qo'l yordamida boshqa a'zolar bilan har turli noverbal ifodalar amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: *Qur'on, noverbal, qo'l, barmoq, ishora.*

Bu bo'limda qo'l bilan bog'liq harakatlarning balog'iy ifodalari haqida so'z yuritiladi. U Harakatlar qo'lining o'zi bilan sodir etiladimi yoki qo'l ishtirokida boshqa a'zolar bilanmi yoki qo'l ish-harakatni bajaruvchi bo'ladimi yoki ish-harakat uning ustida sodir bo'ladimi yoki bo'lmasa haqiqiy ma'noda keladimi yoki majoziy ma'nodami umuman shu haqida so'z yuritimiz.

Darhaqiqat, qo'l insonning ichki hissiyotlari bo'lgan rozilik, g'azab, qabul qilishlik yoki qila olmaslik, taajjub va inkor etish ma'nolarini ifoda etish vazifasida huddi qo'lining maqomida bo'ladi yoki u bilan ifoda jarayonida ishtirok etadi.

Qur'oni Karimda yuqoridagi holatlarning ko'plari vorid bo'lgan. Masalan, barmoqlarni qo'rquv, daxshatdan havfsiraganini ifodalash uchun yoki payg'ambarlarning da'vatlarini eshitishni rad etishni ifodalash uchun quloqlarga barmoqlarni qo'yishlik, afsusni bildirish uchun tishlar bilan barmoqlarni tishlash, karamni ifodalash uchun qo'lni cho'zishlik yoki aksincha qizg'anchilikni bildirish uchun uni berkitishlik kabi misollar kelgan.

Lug'at kitoblarda qo'l deya uning kafti va barmoqlari tushuniladi. "Lisonul arab "da qo'l bu kaftdir. Abu Ishoq aytadi:" Qo'l barmoqlar yonidan kaftgacha bo'lgan qismdir". Odatiy tushunchada esa tirsakdan to kaftgacha qo'l deyiladi. Qo'l haqiqiy ma'nosida ishlatilishidan tashqari yana boshqa majoziy ma'nolarda ham ishlatiladi. Masalan, qo'l bu boylik, qudrat, quvvat, ne'mat, sulton, toat, jamoat yoki nadomatdir. Arab tilida *سَقَطَ فِي يَدٍ* ya'ni nadomatga tushdi, afsusda qoldi deyiladi. Qur'oni Karimda " *وَلَمَّا سَقَطَ فِي أَيْدِيهِمْ..* " ya'ni " **qo'llari tushgan paytda...** " ya'ni nadomat qilganlarida deyiladi. Yoki, yana boshqa ma'nolar ifodasiga misol o'laroq Ibn Shamilning baytini keltirsak bo'ladi;

لَهُ عَلَيَّ أَيْدٍ لَسْتُ أَكْفُرُهَا وَ إِنَّمَا الْكُفْرُ إِلَّا تُشْكِرَ النِّعَمَ

Ya'ni, mening ustimda men kufr keltira olmaydigan qo'llari bor, darhaqiqat, kufr bu ne'matlarga shukr qilinmaslikdir. Bu baytda qo'l so'zi yaxshilik, ikrom ma'nosida keldi. Va, payg'ambar a.s ning bu hadislar ham misol bo'la oladi:"Yuqori qo'l pastki qo'ldan yaxshidir". Ya'ni, ehson qilguvchi qo'l saqada olguvchi qo'ldan yaxshidir deyilmoqda.

Kundalik hayotimizda fikrimizni ifoda etish asnosida qo'llarimizni oldindan o'ylab o'tirmasdan shartli reflex holatida ham ishlatamiz. Kimnidir kutib olishda salomlashish yoki kuzatoyatganda u bilan xayrlashish maqsadida qo'llarimizni tirsagi bilan yuqorigga ko'taramiz. Yoki bo'lmasa, qo'rqitish, po'pisa qilish va tahdid qilish uchun ko'rsatgich barmoqni tik ushlagan holda qolgan kaftimizni musht qilib ishora qilishimiz, yoki ikki kaftimizni hayrat va taajjubimizni bildirish uchun bir-biriga

urishimiz mumkin. Nadomat, afsusni ifodalash uchun beixtiyor barmoqlarimizni tishlashimiz yoki tirnoqlarimizni tishlarimiz bilan kesmoqchi bo'lamiz. Yuqoridagi harakatlarni ko'pini beixtiyor qilamiz. Sababi, aqli raso kishi sababsiz barmoqlarini tishlamaydi.

Tana tili olimlari muayyan bir hudud tushunchasidan butun insoniyat tushunishi mumkin bo'lgan chegaraga yetgan ba'zi qo'l ishoralarini eslab o'tishadi. Misol uchun, svetofor vazifasini bajaruvchi xalqaro qo'l ishoralari, butun dunyoda bir xil tushuniladigan insoniy ichki kechinmalarni umumiy desak bo'ladi. Jumladan, o'yga cho'mgan inson odatda bir qo'lga suyanib olib ikkinchi qo'lining kaftini esa peshonasi yoki yanog'iga qo'ygan holatda gavdalanadi. Shuningdek, ikki qo'lni bir-biriga ko'krakning ustida bog'lab turish esa kishidagi faxrni, g'ururni ba'zan esa kibrni ifodalasa, ko'rsatgich barmoqni o'ng va chapga tebratish esa e'tirozni bildiradi yoki uni bir-biriga tegib turgan lablarning ustiga qo'yish esa ro'paradagi insonni jim turishini talab qilishni anglatadi.

Qo'l bilan amalga oshiriladigan ishoralar ba'zi tilshunoslarning ta'kidiga ko'ra 700 xildan ortiq ko'rinishi bor. Albatta, qo'l insonning gapirish asnosidagi ko'mak beruvchi va inson undan eng foydalanadigan tana a'zosi hisoblanadi. Sababi, qo'l bilan so'raymiz, chaqiramiz, buyuramiz, qaytaramiz, talab qilamiz, javob beramiz, quvonchimizni yoki g'amimizni ifodalashda unda foydalanamiz.

Tana tili haqida so'z yurtigan muqaddam ulamolar butun tana a'zolari haqida umumiy to'xtalagan bo'lsalar, qo'l haqida xossatan to'xtalib o'tishgan.

Johiz ham " Tilning bayon etishi uchun unga ba'zi ishlar jumladan qo'l kerak bo'ladi " deya qo'lni tilga bayon etish masalasida ko'makchi deb aytgan¹. Va, U yana qo'lning har bir o'rning o'z muayyan vazifasi borligigga ishora qilib "Barmoqlarning bo'g'imlari sanash uchun va har birining o'z o'rni bor "deya ta'kidlagan². Boshqa bir o'rinda esa, qo'l va bosh bilan chiroyli ishora qilishlik bayonning mukammaligidandir deydi.

Payg'ambar alayhissalomning ba'zi hadislarida maqsadni ifoda etish uchun qo'l yoki barmoqlar harakatidan foydalanish so'zdan ko'ra tushunarliroq va yetarliroq bo'lganini ko'rsatadigan o'rinlar bor. Jumladan, Muhammad alayhissalomning mana bu gaplari: " Men va soat mana bu ikkisi kabi yuborildim" dedilar va ikki ko'rsatgich va o'rta barmoqlarini bir-biriga yaqinlashtirdilar³. Va, yana " Taqvo mana bu yerda " dedilar va muborak ko'kraklariga uch martta ishora qildilar⁴. Boshqa bir hadislarida:" Mo'min mo'minga bir-birini quvvatlaydigan bino kabidir "dedilar va barmoqlari orasini birlashtirdilar⁵.

Ko'pincha hadisi shariflarda qo'l quyidagi ma'nolarda ishlatilgan. Masalan, muayyan joyga ishora qilish, tomonga, holatga ishora qilish ma'nolarida asosan ishlatilgan. Hattoki, qo'l islom ibodatlaridan biri bo'lgan Ka'ba tavofida ham salom ma'nosida ishora qilish vazifasini bajaradi. Ma'lumki, salom so'z bilan amalga

¹ Al Hayvon – Jahiz; Daru So'b, Bayrut;1983

²Albayan va at tabyiyn; Abdussalom Horun; AL Xonijiy, Misr, 1969

³ Sahihi Muslim – Imom Abu Al Hasan Muslim ibn Al Hajjoj Al Qushayriy An Naysaburiy;Al Islamiyya nashr, Itnaabul

⁴ Sahihi Muslim – Imom Abu Al Hasan Muslim ibn Al Hajjoj Al Qushayriy An Naysaburiy;Al Islamiyya nashr, Itnaabul

⁵ Mishkatul Al Masobiyh – AL Hatib At Tabriziy Makka- 1992.

oshiriladi, yoki harakati bilan yoki bo'lmasa har ikkisi bilan bajariladi. Salom payg'ambar alayhissalomning hadislarida ishora bilan sodir bo'lgan. Ibn Abbas roziallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Payg'ambar alayhissalom baytni hachirning ustida tavof qildilar va har gal ruknga kelganlarida unga ishora qildilar" va boshqa bir rivoyatda esa " o'zlaridagi biror narsa bilan ishora qildilar keyin takbir aytdilar " deyiladi.

Qur'on Karim qo'lining harakati ko'rinishlarini o'zida jamlagan. Har bir harakatning o'zining balog'iy ifodalari bor va Qur'oni Karim nafslar haq da'vaatga ijobat qilishi uchun ta'sirli bo'lsin o'laroq ushbu ifodalarni keltiradi.

Qo'l yoki qo'llar harakati Qur'oni Karimda o'zi alohida zikri kelishi mumkin. Masalan, " فَأَشَارَتْ إِلَيْهِ قَالُوا كَيْفَ نُكَلِّمُ مَنْ كَانَ فِي الْمَهْدِ صَبِيًّا " ya'ni " unga ishora qildi. Ular beshikdagi go'dak bo'lgan bilan qanday gaplashamiz dedilar..."⁶

Shuningdek, qo'l boshqa a'zolar bilan birga zikri kelishi mumkin. Masalan, " ...يَجْعَلُونَ أَصَابِعَهُمْ فِي آذَانِهِمْ... ya'ni " ... barmoqlarini quloqlariga qiladi..."⁷.

Qo'l tanadan tashqari jism bilan uchrashishi zikri kelishi mumkin. Masalan, " فَلَمَسُوهُ بِأَيْدِيهِمْ " ya'ni " Uni qo'llari bilan ushladilar " ⁸ Ushbu bo'limda Qur'oni Karimdagi bir necha qo'lni alohida zikr qilgan, boshqa bir a'zo bilan birga zikr qilgan, tanadan tashqari bo'lgan narsa bilan birga zikr qilgan, unda qo'l bajaruvchi vazifasida bo'lgan yoki uning ustida bajariluvchi vazifasida bo'lgan ma'nolarni o'zida mujassam qilgan oyatlarni ko'rib chiqamiz. Ba'zan, ishora tili nutq tilidan ma'no yetkazishda ustunroq bo'lishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Tafsiri Hilol
2. Al Hayvon – Jahiz; Daru So'b, Bayrut;1983
3. Albayan va at tabyiyn; Abdussalom Horun; AL Xonijiy, Misr, 1969
4. Sahihi Muslim – Imom Abu Al Hasan Muslim ibn Al Hajjoj Al Qushayriy An Naysaburiy;Al Islamiyya nashr, Itnaabul
5. Mishkatul Al Masobiyh – AL Hatib At Tabriziy Makka- 1992.

⁶ Maryam surasi

⁷ Baqara surasi

⁸ An'om surasi